

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# No5

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
<b>Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли</b>	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	18
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	35
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	48
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	68
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	74
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	106
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	111
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	117
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	123
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	127
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	132
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	143
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	151
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	156
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	161
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	166
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	178
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	184
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLIISH VA UNING MUAMMOLARI.....	196
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	215
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	225
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ .....	231
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	236
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	241
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	248
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI .....	255
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	263
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI .....	268
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O‘RNI .....	272
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	278
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV .....	283
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA‘MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI .....	290
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	293
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	298
<b>Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	303
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	308
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o‘g‘li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	312
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI .....	317
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	331
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQISH DARAJASI..	337
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	354
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	375
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQUISH .....	379
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	403
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	411
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH .....	423
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
<b>Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich</b>	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
<b>Utkirova Mamura Faxriddin qizi</b>	
HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI .....	436
<b>Isakov Axmadali Esanbayevich</b>	
MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH .....	444
<b>Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li</b>	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI.....	452
<b>Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
<b>Sharapov Umidjon Shavkatovich</b>	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI .....	471
<b>Berdiyeva Dilfuza Axatovna</b>	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI .....	477
<b>Turayev Abduvoxid Kuldashevich</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	483
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI .....	488
<b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich</b>	
QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI.....	492
<b>Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F.</b>	
YOSH TADBIRKORLARNING STARTAP LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	497
<b>Koriev Orif Azizovich</b>	
HUDUDLARDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	502
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Karimov Chuxmor Abdirashidovich</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY HOLATI VA MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI.....	507
<b>Alimov Baxodir Batirovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISHNING IQTISODIY TAHLILI .....	513
<b>Turg'unov Nodirbek Muminjanovich</b>	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING ROLI .....	516
<b>Xodjimatom Maksudbek Ubaydullayevich</b>	
MINTAQA TURIZM INDUSTRIYASINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA BOSHQARUV FAOLIYATLARI TAHLILI .....	520
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Ruziqulov Aziz Tuxtayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA FINTECH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNI TA'MINLASH: NAZARIY YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR .....	526
<b>Nazarova Shohista Tolmas qizi</b>	
METALLARGA BOSIM OSTIDA ISHLOV BERISH JARAYONLARINI RAQAMLI MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	531
<b>Xasanov Kamoliddin Akmal o'g'li, Abdullayev Fatxulla Sagdullayevich, Diyorov Salohiddin Farhod o'g'li, Jalolov Jafar Jamol o'g'li</b>	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL MABLAG'LARI HISOBINI MHHS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	537
<b>Umurzakov Dilshodbek Xakimovich</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIRIN IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHGA UNDOVCHI OMILLAR.....	543
<b>Bobojonov Azimjon Akmal o'g'li</b> MINTAQANING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	548
<b>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</b> BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MUZEY OBYEKTINING SIG'IM TAHLILI: FAYZULLA XO'JAYEV UY-MUZEYI TAJRIBASIDA.....	553
<b>Odilova Muattar Akram qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b> MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI.....	560
<b>Turdiyeva Muqaddas Umarovna</b>	



# MAMLAKATIMIZDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIKLARI

## Turdiyeva Muqaddas Umarovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: muqaddasturdiyeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatining iqtisodiy mexanizmi borasida o'tkazilgan tahlillar asosida O'zbekiston amaliyotida keng qo'llaniladigan moliyaviy vositalar va ularning o'ziga xos ustuvorlik xususiyatlari aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, innovatsiya, innovatsion faoliyat, kichik innovatsion tadbirkorlik, innovatsion faol tadbirkor, innovatsion muhit.

**Аннотация:** В статье на основе проведенного анализа экономического механизма инновационной деятельности субъектов малого предпринимательства определены финансовые инструменты, широко применяемые в практике Узбекистана, а также их специфические приоритетные особенности.

**Ключевые слова:** предпринимательство, малое предпринимательство, инновация, инновационная деятельность, малое инновационное предпринимательство, инновационно активный предприниматель, инновационная среда.

**Abstract:** Based on the analysis of the economic mechanism of innovative activity of small business entities, this article identifies the financial instruments widely used in the practice of Uzbekistan and reveals their specific priority features.

**Keywords:** entrepreneurship, small business, innovation, innovative activity, small innovative entrepreneurship, innovative entrepreneur, innovative environment.

## KIRISH

Global darajadagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari bugungi zamonaviy bozor raqobati amal qilayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurituvchi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, kichik tadbirkorlik faoliyatida innovatsion rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, o'z faoliyatiga innovatsion loyihalarni joriy etish bo'yicha amaliy ishlarga ustuvorlik qaratish zaruriyatini oshirib bormoqda. Xususan, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mahalliy tadbirkorlik subyektlarining barcha shakllarini, ayniqsa, kichik va o'rta biznes vakillari innovatsion faoliyatini rivojlantirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilib, mazkur islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RBQ-630-son<sup>1</sup> Qonuni hamda islohotlarning ustuvorliklari bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda "Innovatsion rivojlanish strategiyasi"ga asoslaniladi<sup>2</sup>. Mazkur normativ hujjatlar milliy iqtisodiyot tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan turli shakldagi tadbirkorlik subyektlari, xususan, kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda konseptual ahamiyat kasb etib, ularni amaliyotga joriy etish samaradorligini ta'minlashda kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyati borasida iqtisodiy fanda shakllangan ilmiy qarashlarni chuqur tahlil qilgan holda, mamlakat amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlarini aniqlash kerak bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatda milliy iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning iqtisodiy rivojlanish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarda kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi amal qilish holatini takomillashtirish borasidagi chuqur islohotlar izchil

1 <https://lex.uz/docs/-4910391>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022-yildagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-6102462>



amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasida "kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirish, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini tekin foydalanishga berish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'z faoliyatida xalqaro standartlarni joriy qilishni rag'batlantirish, venchur jamg'armalar ishtirokida sun'iy intellekt, 'aqlli', raqamli, 'yashil' va resurs tejovchi texnologiyalar kabi yangi biznes yo'nalishlaridagi startap loyihalarga investitsiya kiritish"<sup>3</sup> kabi ustuvorliklar belgilab berilgan bo'lib, ushbu holat kelgusi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanishidan dalolat beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish, uni innovatsion rivojlantirish, innovatsion jarayonlar va uni moliyalashtirish samaradorligini oshirish, sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini baholash va uni mustahkamlash bo'yicha I. Ulashev, A. Tashpo'latov, Sh. Hakimov, Z.R. Xusanova, R.A. Rashidov, G.A. Soliyeva, Z.X. Zaxidova, K.D. Karimova, A.X. Po'latov kabi mahalliy iqtisodchilar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish ustuvorliklari maxsus tadqiqot obyekti sifatida kompleks tadqiq etilmagan hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o'rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy vositalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosi kichik biznesni rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga oid ilmiy nazariyalar hamda amaliy yondashuvlarga tayanadi.

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda tizimli yondashuv usuli qo'llanildi. Ushbu usul kichik tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy institutlar va innovatsion faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Natijada moliyaviy vositalarning innovatsion rivojlanishga ta'sir mexanizmlari kompleks tarzda o'rganildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Bunda mamlakatimizdagi kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash amaliyoti ayrim xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Ushbu yondashuv moliyaviy instrumentlardan foydalanish samaradorligi, mavjud muammolar va ilg'or tajribalarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham muhim o'rin egalladi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar, grantlar, subsidiyalar hamda venchur moliyalashtirish hajmi va dinamikasi tahlil qilindi. Bu esa moliyaviy vositalarning innovatsion faollikka ta'sir darajasini miqdoriy baholashga xizmat qildi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarni o'rganish (desk research) usuli qo'llanildi. Mahalliy va xalqaro olimlarning kichik biznesni rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy ishlari tahlil qilindi. Bu tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishga yordam berdi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Induktiv yondashuv orqali amaliy ma'lumotlar asosida umumiy xulosalar ishlab chiqildi, deduktiv usul orqali esa nazariy qoidalar asosida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga doir xususiy tavsiyalar shakllantirildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish jarayonini chuqur tahlil qilish va samarali ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish borasidagi ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan yondashuvlar fanda mazkur yo'nalishdagi milliy nazariy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Jumladan, D.I. Ro'ziyeva kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: "tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatida innovatsion jarayonlarni tashkil etishlari uchun ularning ixtiyorida g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun yetarli pul mablag'lari, yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi, yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun zamon talabiga javob beradigan, qobiliyatli xodimlar

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-7444738>

bo'lishi bilan birgalikda, ular bugungi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish talablari darajasidagi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim". Shu bilan birgalikda, tadqiqot jarayonida kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy, kadrlar bilan bog'liq bo'lgan resurslar, moddiy va nomoddiy aktivlar hamda ijtimoiy va ruhiy omillarga bog'liq, degan xulosaga kelingan.

A.A. Qulmatov "iqtisodiyot va innovatsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish xo'jalikni bozor tamoyillariga o'tkazishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi hamda kichik korxonalar sohasida innovatsion faollikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi"<sup>4</sup>, degan fikrni ilgari suradi. Tadqiqot jarayonida olim kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faollik darajasini oshirish hisobiga milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion diffuziya jarayonlarining kuchayishi orqali yaxlit iqtisodiy tizimni innovatsion rivojlanish yo'nalishiga o'tkazish imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi.

Dj.Ya. Babaxanov tadqiqotlarida esa kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyati mohiyatini tushuntirishda uning natijaviy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratib, "korxonalarda innovatsion jarayonlarning ikki tomonlamaligini hisobga olish kerak bo'lib, bu jarayonlar fan va texnika imkoniyatlari hamda bilim talab qiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirish ehtiyojlari o'rtasidagi uzluksiz o'zaro ta'sirda sodir bo'ladi"<sup>5</sup>, degan xulosaga keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatida iqtisodiy mexanizm mazkur yo'nalishdagi faoliyatni rivojlantirishda moliyaviy, soliq va bojxona, bozor, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, raqobat muhiti hamda qonuniy (yoki huquqiy-me'yoriy) asos kabi iqtisodiy ahamiyat kasb etuvchi vosita va usullar majmuasi sifatida namoyon bo'lib, ularning har biri 1-jadvalda keltirilgan tartibda izohlanadi.

Tahlillar kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini samarali rivojlantirishda uning iqtisodiy mexanizmi samarali amal qilishi zarurligini ko'rsatib, bunda quyidagi vazifalarni hal etish kerakligini ko'rsatadi: birinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan moliyaviy vositalar o'rtasidagi o'zaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish;<sup>6</sup> ikkinchidan, kichik tadbirkorlik faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklikning bozor talablariga mos keladigan shakllarini joriy etish hamda ular o'rtasidagi o'zaro innovatsion hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish; uchinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanish imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi infratuzilmaviy ta'minot holatini yaxshilash, jumladan, kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy asoslarni mustahkamlash (1-jadval).

#### 1-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatining iqtisodiy mexanizmi tarkibiy elementlari va ularning izohlanishi<sup>7</sup>

No	Tarkibiy elementlar	Tarkibiy elementlarning izohlanishi
1	Moliyaviy vositalar	Kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini rag'batlantirishda kreditlash, subsidiyalash, innovatsion loyihalarni investitsiyalash va grantlar ajratish kabi usullardan foydalanish jarayonida o'z ifodasini topadi.
2	Soliq va bojxona imtiyozlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etganligi sababli ularni soliqdan ozod etish, soliq ta'tillari berish, bojxona bojlarini bekor qilish va tariflarini yengillashtirish kabi rag'batlantiruvchi mexanizmlarni qo'llash bilan bog'liq jarayonlarni amalga oshirilishida namoyon bo'ladi.
3	Bozor mexanizmlari	Ishlab chiqilgan innovatsion ishlanmalar, ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, ITTKI ishlanmalari, ilmiy fundamentlar va amaliy grant natijalarini tijoratlashtirish, innovatsiyalarni bozorga olib chiqishga qaratilgan strategiyalar bozor mexanizmlari hisoblanadi.
4	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalari	Turli shakldagi tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishning infratuzilmaviy ta'minoti holatni yaxshilash, jumladan, biznes inkubatorlar, texnoparklar, innovatsion klasterlar, hududiy innovatsion va startap ekotizimlarini shakllantirish va boshqa turdagi institutlar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

4 Ro'ziyeva D.I. Venchurli tadbirkorlik – kichik biznes subyektlari innovatsion salohiyatini oshiruvchi dastak sifatida. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2020. – 126–134-betlar.

5 Qulmatov A.A. Innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishda kichik tadbirkorlikning roli. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), Vol. 3, Issue 13, Feb., 2023. – 20–27-betlar.

6 Babaxanov Dj.Ya. Kichik biznes subyektlarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarish loyihalarini tijoratlashtirish masalalari. "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy elektron jurnali, VI-son, iyun, 2024. – 308–314-betlar.

7 Muallif tomonidan tuzilgan



5	Raqobat muhiti va huquqiy asos	Turli tadbirkorlik subyektlari faoliyatida innovatsion rivojlanish bo'yicha sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faoliyat yo'nalishida litsenziyalash, patentlash, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq me'yoriy asoslarni shakllantirilishi nazarda tutiladi.
---	--------------------------------	---

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirishda moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi muammosi mavjud ekanligini ko'rsatib, uning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirishda mazkur faoliyat turini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashga ustuvorlik qaratish zarur, degan xulosaga kelish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda turli mamlakatlarda bo'lgani singari O'zbekiston amaliyotida ham venchur kapital, bank kreditlari, davlat grant va subsidiyalari, kraudfanding, startaplarni moliyalashtirish hamda biznes-inkubatorlardan foydalanilmoqda. Ularning ahamiyati 2-jadvalda keltirib o'tilgan (2-jadval).

### 2-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning ahamiyati<sup>8</sup>

№	Moliyaashtirish manbalari	Izohlanishi
1	Venchur kapitali	Risklilik darajasi yuqori bo'lishi bilan birgalikda, mazkur moliyalashtirish manbalari orqali innovatsion faoliyatni investitsiyalash yuqori daromadligi bilan xarakterlanadi.
2	Bank kreditlari	Kredit xizmatidan foydalanish jarayonidagi o'rnatilgan qat'iy talablar bilan birgalikda, yuqori darajadagi kafolat talab qilinadi.
3	Davlat grand va subsidiyalari	Kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion yo'nalishdagi faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari sifatida namoyon bo'ladi.
4	Kraudfanding va startup platformalari	Bu turdagi moliyalashtirish manbalari kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini jamoaviy shaklda investitsiyalash shakli hisoblanadi.
5	Biznes-inkubatorlari	Kichik innovatsion tadbirkorlik subyektlari faoliyatini boshlashning dastlabki bosqichlarida boshlang'ich biznes uchun infratuzilma ta'minoti va tegishli konsultativ (maslahat) xizmatlari ko'rsatishi bilan xarakterlanadi.

O'tkazilayotgan tahlil natijalariga aniqlik kiritish maqsadida kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyati iqtisodiy mexanizmi tarkibiy komponentlarining afzalliklari, kamchiliklari va ularni qo'llash sharoitlari o'rtasidagi qiyosiy tahlilni o'tkazish orqali har bir tarkibiy komponentlarning amal qilishi bo'yicha quyidagi tartibdagi umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirishga erishildi:

birinchidan, kichik tadbirkorlik faoliyatida yuqori xavflilik darajasiga ega bo'lgan, katta salohiyatli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda venchur kapitalidan foydalanish talab etiladi;

ikkinchidan, ilmiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi startaplarni moliyalashtirishda davlat grant va subsidiyalari, texnoparklar hamda biznes-inkubatorlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi;

uchinchidan, ta'minoti mavjud va yuqori daromadli bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish jarayonida tijorat banklari kreditlaridan foydalanish eng ishonchli usullardan sanaladi;

to'rtinchidan, turli raqamlashtirilgan dasturlar va internet platformalari orqali targ'ibot qilish imkoniyati mavjud bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda kraudfanding eng maqbul usullardan biri hisoblanadi;

beshinchidan, kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faoliyatini qonuniy asosda rag'batlantirishda soliq imtiyozlari ajratish, soliq ta'tili va bojxona bojlari bo'yicha yengilliklarni joriy qilish iqtisodiy mexanizm samaradorligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- O'zbekiston Respublikasining 24.07.2020-yildagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4910391>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022-yildagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-6102462>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-7444738>
- Ro'ziyeva D.I. Venchurli tadbirkorlik – kichik biznes subyektlari innovatsion salohiyatini oshiruvchi dastak sifatida.

8 Muallif tomonidan tuzilgan



- “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2020. – 126–134-betlar.
5. Qulmatov A.A. Innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tishda kichik tadbirkorlikning roli. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, Vol. 3, Issue 13, Feb., 2023. – 20–27-betlar.
  6. Babaxanov Dj.Ya. Kichik biznes subyektlarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarish loyihalarini tijoratlashtirish masalalari. *“Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy elektron jurnali*, VI-son, iyun, 2024. – 308–314-betlar.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)